

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA "MUAMMOLI METOD"NING MOHIYATI VA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI.

O'zDJTU katta o'qituvchisi
Tashpulatova Feruza Sultanovna

Annotasiya. Taqdim etilayotgan maqola xorijiy tillarni o'rgatishda muammoli metodning mohiyati va ta'lim texnologiyasining ahamiyati masofadan o'qitish texnika va texnologiyasining asosi bu zamonaviy axborot texnologiyalaridir ya'ni multimedia, Web - texnologiya elektron virtual kutubxona masofadan turib ta'lim berish taqdim etish texnologiyasi sun'iy tafakkur tizimlari, Vebinar metodi, Evriktik metodlar Modul - o'quv material yoki ta'lim mazmunini o'zaro uyg'unlashtirilgan namunasi Muammoli o'qitish-O'qitishning tabiiy-samarali usuli, muammoli vaziyatlar yaratish orqali ilmiy bilimlar mantiqini namoyish etadigan o'qitish jarayonlari ifodalangan.

Аннотация: Представленная статья посвящена сущности проблемного метода и значению образовательных технологий в обучении иностранным языкам. Основой дистанционных методов и технологий обучения являются современные информационные технологии, а именно мультимедиа, Web - технологии, электронная виртуальная библиотека, дистанционное обучение, презентационные технологии, системы искусственного интеллекта, метод вебинаров, эвристические методы. Модуль - модель учебного материала или образовательного контента, которые взаимно интегрированы. Проблемное обучение - естественный и эффективный метод обучения, который выражает логику научного познания через создание проблемных ситуаций. **Abstract:** The presented article is devoted to the essence of the problem method and the importance of educational technologies in teaching foreign languages. The basis of distance learning methods and technologies are modern information technologies, namely multimedia, Web technologies, electronic virtual library, distance learning,

presentation technologies, artificial intelligence systems, webinar method, heuristic methods. Module - a model of educational material or educational content that are mutually integrated. Problem-based learning is a natural and effective teaching method that expresses the logic of scientific knowledge through the creation of problem situations.

Kalit soʻzlar: Taʼlim, mutaxassis, texnologiya, metod, Web - texnologiya, Evristik metodlar, pedagogik texnologiya

Ключевые слова: обучение, специалист Б технология, метод, Веб-технологии, эвристические методы, педагогические технологии

Key words: education, specialist , technology, method, Web- technology, heuristic methods, pedagogical methods .

Hozirgi zamon talabiga toʻliq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu - davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash oʻqitish bilim berish zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni oʻrgatish maqsadida juda koʻp ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi Masofadan oʻqitish texnika va texnologiyasidir. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan oʻqitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi koʻrinishda amalga oshirish mumkin. Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy oʻqitish katta ahamiyat kasb etmoqda. (Azizxodjaeva, N.N., 2005)

Chunki taʼlimning bu turi shu paytgacha mavjud boʻlgan taʼlim turlaridan oʻzining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Masofadan oʻqitish texnika va texnologiyasining kunduzgi va boshqa taʼlim turlaridan farqli jihati shundaki mazkur taʼlim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. Masofadan oʻqitish texnika va texnologiyasi oʻzida kunduzgi va sirtqi taʼlim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich roʻyobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir. Yangi pedagogik texnologiya uchun avtomatlashtirilgan

o'qitish kurslarini yaratish murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun chet tillari bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi bilan birga ta'lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalarining psixologik va uslubiy ta'minoti ham talab etiladi. Axborot texnologiyalari asosida yangi pedagogik texnologiya an'anaviy o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.(Ochilov,M.,2000) Buning uchun yangi pedagogik texnologiyada interaktiv internet texnologiyalar: muammoli munozaralar, telekonferensiyalar, o'qituvchi va talabalarni muloqot qilish uchun e'lonlar oynasi, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash, turli xil trenajyorlar qo'llaniladi. Yangi pedagogik texnologiyada talabalar mustaqil bilim olishlari uchun tarmoqqa joylashtirish elektron darsliklar, gipermatnli qo'llanmalar, multimedia texnologiya CDROM disklar va boshqalardan foydalaniladi. Chet tillari ta'limi jarayonining samaradorligi axborotlarni talabalarga qanday tarzda, qanday texnologiyalar asosida berilishiga va ularni qanday qabul qilishga bog'liq.(Mirolyubov,A.A.,1967)

Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimedia bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o'tkazish kompyuterli test nazorati skaner texnologiyasi internet elektron pochta Web - texnologiya elektron virtual kutubxona masofadan turib ta'lim berish taqdim etish texnologiyasi sun'iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.(Tashpulatova,F.S. 2024)

Veblinar metodi Veblinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsada butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin. Bundan tashqari Chet tilini o'qitish jarayonida Power Point dasturida slaydlar orqali taqdimotlar tayorlash, elektron o'quv qullanmalardan dars jarayonida tatbiq etish orqali dars jarayonini boyitish shuningdek, kompyuter texnologiyalari orqali yangi interaktiv metodlardan foydalanish xam mumkun. Bunday texnologiyalar ta'lim tizimida o'z aksini topishi

uchun, asta-sekin, bosqichma-bosqich o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida qo'llash va ulardan oqilona foydalanishga xarakat kelish kerak. (Yo'ldoshev J.G., 2004)

Shu jumladan muammoli metodning mohiyati. Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari "muammoli vaziyat" "muammo", "muammoni topish" kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa shubhasiz muammoli vaziyat echimini u qabul qilmaydi ya'ni muammoning echimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi ifodalanishi mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi.

Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin: Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda echimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning echimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu

muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi ya'ni ta'lim oluvchining qanday o'qiyotganligi va rivojlanayotganligini to'liq tushunib, his qila oladigan, ya'ni uning hayotini o'z shaxsiy hayoti singari his qilib, o'quvchining ichki, axloqiy-ma'naviy, umummadaniy o'sib rivojlanishiga, bolalar hamda kattalar hamjamiyatining mustahkamlanishiga ko'maklasha oladigan o'qituvchi zamonaviy pedagog faoliyati metodi deb izohlanadi. Bu faoliyatning asosiy o'zagi quyidagi metodlardan iborat.

Evristik metodlar-o'quvchilarni asta-sekin muammolarni hal etishga yaqinlashtirish uchun, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishga o'rgatish, ko'nikma hosil qilish metodi. Innovasion texnologik metod-pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni. Innovasion ta'lim-ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar, yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonidir. Modul - o'quv material yoki ta'lim mazmunini o'zaro uyg'unlashtirilgan namunasi, o'quv axborotining mantiqiy bo'lakka bo'lingan qismi, ushbu qism mantiqan yaxlit va tugallangan bo'lib, uning o'zlashtirilishini nazorat qilish mumkin bo'ladi hamda fanning fundamental tushunchasini taqdim etuvchi muayyan jarayon yoki qonun bo'limi, muayyan mavzu doirasida o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidan iboratdir. Modulli ta'lim-modullashtirilgan o'quv dasturi asosida tashkillashtiriladigan o'qitish jarayoni.

Yuqorida izohlab o'tilgan barcha metodlar va ta'lim texnologiyalarini pedagogik olimlar va amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarni o'z faoliyatlarida keng qo'llashga intilmoqdalar pedagogik texnologiyalarning samaradorligi shundan iboratki unda turli fan o'qituvchilarining ta'lim va tarbiya jarayonida bir xil yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'lishi ahamiyatlidir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, chet tillarni o'zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash talaba yoshlarni fanga ya'ni, til o'rganishga qiziqishlarini, mustaqil fikirlashga, ijodkorligini oshirishga, o'z ustida ishlashga, sayqallashib, yangi bilimlarni egallashga, dunyoqarashi va tafakkurini rivojlanishiga,

xozirgi zamon standartlari va talablariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. -T.: Cho'lpon, 2005.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Mirol'yubov.A.A."Obshaya metodika obucheniya inostrannim yaizkam v sredney shkole"1967.
4. Tashpulatova, F. S. Ispan tili leksikasini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatishning maqsad va vazifalari. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 43(3), 108-112. (2024).
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.: O'qituvchi, 2004.